ISNN:2181-1296

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (156)
2026

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2026-yil, 2-son (156/2) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Huquqshunoslik, Siyosiy fanlar, O‘qitish metodikasi, Filologiya, Pedagogika, Sotsiologiya, Psixologiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R.I.XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI: **H.A.XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M.Q.Muhiddinov	-f.f.d., professor (SamDU)	B.E.Ergashev	-t.f.d., professor (SamDU)
Stefano Benazzi	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	S.A.Karimov	-f. f. d., professor (SamDU)
Simone Mantelini	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	M.X.Lutfullayev	-p.f.d.. professor (SamDU)
Sh.Y.Ziyodov	-i.f.d. (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)	A.R.Samadov	-fal. f.d., professor (SamDU)
N.U.Arabov	-i.f.d., professor (SamDU)	Sh.A.Hasanov	-f.f.d., professor (SamDU)
Hiroaki Huziie	-Osaka universiteti professori (Yaponiya)	B.S.G‘oyibov	-t.f.d., (SamDU)
B.O.To‘rayev	-fal. f.d., professor (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-	G.B.Normurodova	-t.f.d., (SamDU)
A.B.Pardayev	-f. f.d., professor (SamDU)	F.Sh.Rashidova	-t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.Yusupova	-f.f.n., dotsent (SamDU)	D.Q.Usmonova	-i.f.n., dotsent (SamDU)
O.Qodirov	-p.f.n., dotsent (SamDU)	N.A.Isakova	-f.f.n., dotsent (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun- **5584**

M U N D A R I J A
C O N T E N T S

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
1	Samarqandning Temuriylar sulolasi davridagi evolyutsiyasi, uning sivilizatsiyalarga o‘zaro ta’siri va uyg‘unlashuvi **Keremu N.**	The evolution of samarkand during the timurid dynasty and the interaction and fusion of its civilizations **Keremu N.**	**5-11**
2	Nazar Eshonqulning “Bepoyon osmon” hikoyasida muallif uslubiga lingvopoetik jihatdan yondashuv **Safarova D.B.**	A Linguopoetic Approach to the Authorial Style in Nazar Eshonqul’s Short Story “Bepoyon osmon” (The Boundless Sky”) **Safarova D.B.**	**12-15**
3	Ingliz va o‘zbek tillarida neologizmlarning tasnifi va ularning til tizimidagi o‘rni **Pardayeva N.B.**	Classification of neologisms in english and uzbek languages and their role in the language system **Pardaeva N.B.**	**16-20**
4	O‘rta asrlarda sharq va g‘arbiy yevropa mamlakatlaridagi davlat boshqaruvi va ijtimoiy tuzilmalarining qiyosiy tahlili **Abdullayev A.G.**	A comparative analysis of public administration and social structures in the countries of Eastern and Western Europe in the Middle Ages **Abdullaev A.G.**	**21-27**
5	Davlat ekologik ekspertizasi tizimining shakllanish tarixi va uning rivojlanish bosqichlari **O‘tayev O‘. Ch.**	History of the formation of the state ecological expertise system and its development stages **Utaev U. Ch.**	**28-30**
6	Samkomstarisning Samarqanddagi arxeologik tadqiqotlari va muzey fondlari shakllanishiga qo‘shgan hissasi **Yunusov M.**	The contribution of samkomstaris to archaeological research in Samarkand and to the formation of museum collections **Yunusov M.**	**31-36**
7	7-9-sinf o‘quvchilarining stem kompetensiyalarini baholash: spetsifikatsiya, mezonlar va kpi indikatorlari **Aliyeva X.Sh.**	Assessment of Stem competencies of 7-9 grade students: specification, criteria and kpi indicators **Alieva Kh.Sh.**	**37-42**
8	Raqamli tibbiy ta’limda talabalarda profilaktik immun madaniyatni rivojlantirish texnologiyalari **Mirzakarimova D.B.**	Technologies for the development of preventive immune culture in digital medical education students **Mirzakarimova D.B.**	**43-49**
9	10-12 yoshli kurashchilarda egiluvchanlik sifatining kurash texnikasini o‘zlashtirish samaradorligiga ta’siri **Toshmurodov O.**	The effect of flexibility on the efficiency of kurash technique acquisition in 10–12-year-old kurash athletes **Toshmurodov O.**	**50-57**
10	Влияние государственной политики развития спорта (в контексте «нового Узбекистана») на мотивацию учащихся спортивных школ **Мадаминов Б.Ш.**	The influence of state policy on sports development (in the context of "New Uzbekistan") on the motivation of students in sports schools **Madaminov B.Sh.**	**58-62**
11	Трансформация и калькирование иронических фразеологических единиц в русском и узбекском языках **Тошбекова Д.И.**	Transformation and Calquing of Ironic Phraseological Units in Russian and Uzbek **Toshbekova D.I.**	**63-68**
12	Объективная и субъективная модальность в русском и узбекском языках **Усманова С.Ю.**	Objective and subjective modality in Russian and Uzbek languages **Usmanova S.Yu.**	**69-76**
13	Образ женщин в произведениях Ч. Айтматова **Хаитова Ф.С.**	The Image of Women in the Works of Ch. Aitmatov **Khaitova F.S.**	**77-81**
14	Voleybol murabbiylarini tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish afzalligi **Boltayev Z.B.**	The advantage of using modern pedagogical technologies in the process of training volleyball coaches **Boltaev Z.B.**	**82-87**

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
15	Bo‘lajak shifokorlarda klinik-diagnostik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik modeli va raqamli ta’lim **Zokirov M.M.**	Pedagogical model for developing clinical-diagnostic competence in future physicians and digital educational technologies **Zokirov M.M.**	**88-93**
16	Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (tika)ning tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlari hamda tashkiliy-siyosiy asoslari **Isadjanov B.I.**	The Establishment and Development of the Turkish Cooperation and Coordination Agency (TIKA), as well as its Organizational and Political Foundations **Isadjanov B.I.**	**94-98**
17	Ingliz gazeta sarlavhalarining tarjima xususiyatlari: lingvostilistik tahlil **Husanova Sh.Z., Isakova N.A.**	Translation features of English newspaper headlines: linguistic-stylistic analysis **Husanova Sh.Z., Isakova N.A.**	**99-103**
18	Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishda 4k modeli orqali fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish **Gadayev O.Y., Norkulova J.S.**	Developing thinking and creativity through the 4k model in teaching mother tongue in primary grades **Gadayev O.Y., Norkulova J.S.**	**104-108**
19	Raqamli demokratiya sharoitida legitimlik va fuqarolik faolligining konfiguratsiyasi **Muminjonova U.X.**	Configuration of legitimacy and citizenship in the digital democracy **Muminjonova U.X.**	**109-113**
20	Simulyatsion va raqamli ta’lim muhitida jarrohlik fanini o‘qitishda amaliy kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasi **Abduvoxidov A.A.**	Technology for developing practical professional competencies in teaching surgery within a simulation-based and digital learning environment **Abduvoxidov A.A.**	**114-119**
21	Shoshilinch tibbiy yordamda travmatologik holatlarni sun’iy intellekt asosida erta triaj qilish va klinik qaror qabul qilish samaradorligini oshirish metodikasi **Xolmatov A.A.**	Methodology for improving the efficiency of early triage and clinical decision-making in traumatological conditions in emergency medical care based on artificial intelligence **Xolmatov A.A.**	**120-125**
22	Bo‘lajak shifokorlarda klinik qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik raqamli texnologiyalari **Samatov Z.Z.**	Pedagogical digital technologies for developing clinical decision-making competence in future physicians **Samatov Z.Z.**	**126-130**
23	Yuqumli kasalliklar fanini o‘qitishda klinik-profilaktik fikrlash va epidemiologik xavflarni boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi **Turdiyev M.N.**	Technology for developing clinical-preventive thinking and epidemiological risk management competencies in teaching infectious diseases **Turdiev M.N.**	**131-136**
24	Bo‘lajak shifokorlarga raqamli ta’lim muhitida anatomiya fanini o‘qitishninig zamonaviy texnologiyalari **Nishonova D.T.**	Modern technologies of teaching anatomy to future physicians in a digital educational environment **Nishonova D.T.**	**137-142**
25	Stomatologiya ta’limida valeologik madaniyatni rivojlantirishning integrativ va raqamli pedagogik texnologiyalari **Kamoliddinova I.Sh.**	Ntegrative and digital pedagogical technologies for developing valeological culture in dental education **Kamoliddinova I.Sh.**	**143-148**
26	Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarda mediasavodxonlik ko‘nikmalarini interfaol ta’lim texnologiyalari asosida takomillashtirish **Temirova Z.A.**	Improving students’ media literacy skills in a digital learning environment based on interactive educational technologies **Temirova Z.A.**	**149-154**
27	Tibbiy ta’lim muassasalari talabalarida klinik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi **Kamalova D.A.**	Technology for developing clinical thinking competence among students of medical educational institutions **Kamalova D.A.**	**155-159**
28	Charlz Dikkensning ijodida idio-stilning rivojlanishi: lingvostilistika tahlili **Rahmatilloyeva R.S.**	The development of idio-style in charles dickens’s creative work: linguastylistic analysis **Rahmatilloeva R.S.**	**160-167**

UDK: 577.4:008.4(09) https://doi.org/10.59251/2181-3973.2025.v1.138.1.3909

DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI TIZIMINING SHAKLLANISH TARIXI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

O‘. Ch.O‘tayev
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Toshkent, O‘zbekiston.

O‘. Ch.O‘tayev
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Toshkent, O‘zbekiston.

Kelib tushgan: 13.03.2026
Ko‘rib chiqildi: 30.03.2026
Qabul qilindi: 15.04.2026
Nashr qilindi: 30.05.2026

Nashriyotchi: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat ekologik ekspertizasi tizimining shakllanish tarixi, rivojlanish bosqichlari - Qadimgi Misrdan zamonaviy xalqaro huquqiy institutlargacha bo‘lgan yo‘li tahlil qilingan. AQShda 1969-yilda qabul qilingan NEPA Qonunidan tortib Espoo konvensiyasigacha bo‘lgan xalqaro huquqiy asos, shuningdek, O‘zbekistondagi ekologik ekspertiza tizimining tarixiy bosqichlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. ekologik ekspertiza, tarix, rivojlanish bosqichlari, NEPA, atrof-muhitga ta’sirni baholash, Espoo konvensiyasi, strategik ekologik baholash, rekultivatsiya.

История формирования и этапы развития системы государственной экологической экспертизы

Аннотация. В статье анализируется история становления и этапы развития государственной системы экологической экспертизы - от Древнего Египта до современных международно-правовых институтов. Освещается международно-правовая основа, начиная с закона О Непа, принятого в США в 1969 году, и заканчивая конвенцией Эспоо, а также исторические этапы системы экологической экспертизы в Узбекистане.

Ключевые слова: экологическая экспертиза, история, этапы развития, NEPA, оценка воздействия на окружающую среду, Конвенция Эспо, стратегическая экологическая оценка, рекультивация.

History of the formation of the state ecological expertise system and its development stages

Abstract. This article analyzes the history of the formation and development stages of the state ecological expertise system - its path from Anciyent Egypt to modern international legal institutions. It covers the international legal framework from the U.S. NEPA Act of 1969 to the Espoo Convention, as well as the historical stages of the ecological expertise system in Uzbekistan.

Keywords: ecological expertise, history, development stages, NEPA, environmental impact assessment, Espoo Convention, strategic environmental assessment, recultivation.

Ekspertiza (lat. expertus — «tajribadan xabardor») ma’lum maxsus bilimlarni talab qiladigan savollarga javob olish uchun vakolatli shaxs tomonidan o‘tkaziladigan tadqiqotdir. Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi ekspertlar, Semyuel Gross va Jennifer Mnukinlar ta’kidlashicha, birinchi navbatda kompetentli bo‘lishi kerak va bu talab ikkita jihatda ko‘rib chiqiladi: ma’lum bir sohada malaka, ta’lim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish hamda muayyan ekspertizani o‘tkazishda amaliy kompetentlik. Bu yondashuv ekspertiza institutining tarixiy-metodologik rivojlanish yo‘nalishini ham belgilab berdi.

Dastlabki gidrotexnika inshootlari miloddan avvalgi 3 ming yildan ko‘proq vaqt oldin Qadimgi Misrda yaratilgan. Fir’avn Menes (Narmer) davrida — miloddan avvalgi 3100–3000 yillar atrofida — uzunligi 450, balandligi 15 metrli Koshish to‘g‘oni qurilgan; Nil o‘zanini o‘zgartirish

zarurati undan kelib chiqqan, chunki yaqin atrofda poytaxt Memfis bunyod etilayotgan edi. Taxminan miloddan avvalgi 2800–2500 yillarda Qohiradan 30 km janubdagi Vadi Garavi daryosida balandligi 12 va uzunligi 108 metrli Sadd Kafara to‘g‘oni qurilgan. 1885-yilda nemis arxeologi Georg Shveynfurt tomonidan topilgan mazkur to‘g‘on - taxminan 60 000 tonna tosh va tuproqdan iborat bo‘lib, u sug‘orish uchun emas, balki seldan himoya va ishchilarni suv bilan ta’minlash maqsadida bunyod etilgan. Bu faktlar loyihalash elementlarining ming yillar qa’riga borib taqalishini tasdiqlaydi.

Dunyoda temir yo‘llarning ommaviy qurilishi muhandislik-geologik tadqiqotlarsiz amalga oshirilishi mumkin emas edi, bu esa loyihalashni, shu jumladan ekologik loyihalashni yangi mazmun bilan to‘ldirdi. Sanoat tomonidan buzilgan landshaftlarni qayta tiklashning birinchi tajribasi XIX asrning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi (Germaniya). XX asr boshlarida Angliya, AQSh, Kanada, GFR, Polsha, Chexiya va boshqa mamlakatlarda o‘rmonlarni rekultivatsiya qilish, ko‘mir konlari va qurilish materiallari qazib olish karerlari hududlarini ko‘kalamzorlashtirish keng rivojlandi. Rur va Reyn ko‘mir havzalari rekultivatsiyaning nazariy va amaliy masalalarini ishlab chiqishda ulkan tabiiy poligon bo‘lib xizmat qildi - shu bilan ekologik loyihalash va landshaftni rejalashtirish takomillashtirildi.

Rossiyada 1875-yilda V.V. Dokuchayev «Umuman botqoqliklarni quritish va xususan Polesni quritish masalasi bo‘yicha» maqolasida suv melioratsiyasining fizik-geografik (ekologik) oqibatlarini o‘rganish muammosini qo‘ydi. Sobiq Sovet Ittifoqida loyihalashning ekologik tarkibiy qismi Sovetlarning VIII sezdida GOELRO rejasi qabul qilingandan so‘ng belgilanib, birinchilardan bo‘lib Volxov GYeSini loyihalash boshlandi. 1921-yilda GES to‘g‘onining maqbul balandligini aniqlash vazifasi qo‘yildi; 1930-yillarda loyihalanayotgan Ribinskiy va Kamskiy suv omborlarining ta’sir zonasida kompleks tuproq-botanik tadqiqotlar o‘tkazildi. 1940–50-yillarda gidrotexnik qurilish loyihalarida asosiy e’tibor daryoning gidrologik rejimini bashorat qilishga, gidrogeologik bashoratga va qirg‘oqlarni qayta ishlashga qaratildi.

Ekologik loyihalashga yangi turtki XX asrning 60-yillari boshida, shimoliy daryolar oqimini janubga hududiy qayta taqsimlash va Nijneobsk GESini yaratish loyihalari bilan bog‘liq holda berildi. Sobiq SSSR FA Geografiya institutida I.P. Gerasimov va S.L. Vendrov tashabbusi bilan yirik tekislik suv omborlarining atrofdagi landshaftlarga ta’sirini baholash va GES suv omborlarini prognozlash usullarini ishlab chiqish bo‘yicha kompleks tadqiqotlar o‘tkazildi. Keyinchalik Qoraqum kanalining atrofdagi hududlarga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirildi. O‘sha yillarda AMTBlar davlat maqomiga ega bo‘lmasa-da, ko‘plab ishlar xo‘jalik shartnomalari asosida «Gidroproyekt», «Soyuzgiprovodxoz», «Soyuzgiprolesxoz», «Energosetproyekt» kabi loyiha institutlari bilan hamkorlikda amalga oshirildi.

Dunyoda davlat ekologik ekspertizasi tizimining shakllanishi XX asrning 60-yillariga to‘g‘ri keladi. 1960-yillarning oxirida AQShda sanoatning rivojlanishi natijasida atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy resurslarning kamayishi bo‘yicha jamoatchilik xavotirlari kuchaydi. Bu jarayon ilmiy hamjamiyat va jamoatchilik tomonidan ekologik oqibatlarni oldindan baholash zaruratini tug‘dirdi. 1969-yil dekabrda AQSh Kongressi tomonidan qabul qilinib, 1970-yil 1-yanvarda Prezident Richard Nikson imzolagan Milliy ekologik siyosat to‘g‘risidagi qonun (NEPA) atrof-muhitga ta’sirni baholash (EIA)ni qonuniy talab sifatida mustahkamladi. NEPA federal agentliklardan yirik loyihalarni - aeroportlar, yo‘llar, to‘g‘onlar va hokazolarni - amalga oshirishdan oldin ularning atrof-muhitga ta’sirini baholashni (Environmental Impact Statement - EIS) talab qildi.

1972-yildagi Stokgolm konferensiyasidan so‘ng ko‘plab davlatlar atrof-muhitni muhofaza qilishda ekologik baholash mexanizmlarini joriy etishga kirishdi. Kanadada 1992-yilda Canadian Environmental Assessment Act qabul qilindi. Yevropa iqtisodiy jamiyati (hozirgi Yevropa Ittifoqi) doirasida 1985 yilda Directive 85/337/EEC qabul qilingan bo‘lib, u a’zo davlatlarda muayyan loyihalarda ekologik ta’sirlarni baholashning majburiyligini belgiladi. 1991-yil 25-fevralda Finlyandiyaning Espoo shahrida transchegaraviy kontekstda atrof-muhitga ta’sirni baholash to‘g‘risidagi konvensiya (Espoo konvensiyasi) qabul qilindi; u 1997-yil 10-sentabrda kuchga kirdi va issiqlik hamda gidroelektr stansiyalari, neftni qayta ishlash zavodlari, aeroportlar, magistral quvurlar kabi yirik loyihalar transchegaraviy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lganda qo‘llaniladi.

Keyingi yillarda Jahon banki rivojlanayotgan mamlakatlardagi loyihalarda ekologik baholash talabini qo‘yishni boshladi, bu esa EIA institutini xalqaro darajada yanada kengaytirdi. Bu paytga kelib ekologik ekspertiza nafaqat texnik loyihalar darajasida, balki davlat siyosatlari, rejalari va dasturlari darajasida ham qo‘llanila boshlandi. Shu yo‘nalishdan strategik ekologik baholash (SEA — Strategic Environmental Assessment) instituti rivojlandi. EIAning maqsadi faqat salbiy ta’sirlarni

aniqlash emas, balki barqaror rivojlanish kontekstida ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni birga ko‘rib chiqish sifatida qayta belgilandi. Institutsional jihatdan – davlat ekspertizasi organlari, ruxsat berish mexanizmlari, ekspert xulosalarini tayyorlash jarayonlari – ancha mustahkamlandi.

Fikrimizcha, ekologik ekspertiza tizimining shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlarini quyidagi davrlarga bo‘lish maqsadga muvofiqdir: (1) Menes (Narmer) davri – miloddan avvalgi 3100 –3000 yillar atrofida ilk gidrotexnika inshootlari paydo bo‘lgan davr; (2) miloddan avvalgi 2700–2600 yillar - Qadimgi Misrning 3 yoki 4-sulolalari davri; (3) XIX asrning o‘rtalaridan XX asr boshigacha - Germaniya, Angliya, AQSh, Kanada, GFR, Polsha va Chexiya kabi mamlakatlarda rekultivatsiya va ko‘kalamzorlashtirish davr; (4) sotsialistik tuzumgacha bo‘lgan boy tarixiy davr (1917–1924 yillargacha); (5) sovetlar davri (1924–1991), tabiatni muhofaza qilishga oid bir qator qonunlar qabul qilingan davr; (6) mustaqillik davri (1992 yil - 2000 yil 25-may), «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi va «Ekologik ekspertiza to‘g‘risida»gi alohida qonunlar qabul qilingan davr; (7) Yangi O‘zbekistonni barpo etish davri (2000-yil 25-may – 2025-yil 24- fevral), 2025-yilgi yangi Qonunning qabul qilinishi bilan xalqaro standartlarga mos darajaga chiqqan davr.

Xullas, bugungi kunda ekologik ekspertiza tizimining shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Iqlim o‘zgarishlari va Yangi O‘zbekistonni barpo etish sharoitida bu tarixiy tajribani o‘ziga xos rivojlanish davri sifatida tan olish mumkin. Bu esa ekologik ekspertiza tizimining shakllanishi va rivojlanishi xususiyatlarini namoyon etib, xalqaro andozalarga mos talablarni qo‘llashda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Tarixiy rivojlanishni tushunish har qanday davlatda ekologik ekspertiza tizimini shakllantirish va takomillashtirishda ushbu yo‘nalishning strategik ahamiyatini belgilaydi.

Adabiyotlar

1. «Экспертиза»: статя в Малой советской энциклопедии; 2-э изд.; 1937–1947 гг.
2. Gross S.R., Mnookin J.L. Expert Information and Expert Evidence: A Preliminary Taxonomy // Seton Hall Law Reviyew. — 2003. — Vol. 34. — P. 141–189.
3. Sadd-el-Kafara Dam. Structuraye. Retriyeved 21 July 2010.
4. Garbrecht G. Sadd el-Kafara: the world’s oldest large dam // Water Power and Dam Construction. — July 1985.
5. On the development of industrial landscapes. Springer Reference.
6. National Environmental Policy Act (NEPA). 1969. Public Law 91-190. United States.
7. U.S. Environmental Protection Agency (EPA). Official materials. https://www.epa.gov
8. Canadian Environmental Assessment Act, S.C. 1992. –C.37.
9. Council Directive 85/337/EEC of 27 June 1985 on the assessment of the effects of certain public and private projects on the environment.
10. Convention on Environmental Impact Assessment in a Transboundary Context (Espoo Convention). 1991.
11. Xolmo‘minov J.T. Ekologiya va hayot: qonunchilikni takomillashtirish masalalari. – Toshkent: O‘zR FHI, 2010. - 214 b.
12. O‘zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y., 1-son, 38-modda.
13. O‘zbekiston Respublikasining «Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta’sirni baholash va strategik ekologik baholash to‘g‘risida»gi Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.02.2025 y., 03/25/1036/0173-son.
14. United Nations Environment Programme (UNEP). Environmental Impact Assessment Guidelines. - Nairobi, 2020.
15. Stockholm Declaration of the United Nations Conference on the Human Environment. 1972.

SAMARQAND UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC REPORTS

Texnik muharrir **Sh.Xoliqulov**

Muharrirlar:

I.Sulaymonov - fil.f.d., dotsent
E.Arziqulov - f.-m.f.d., dotsent
O.Yusupova - fil.f.n., dotsent

Mas'ul muharrir:

A. Sh. Yarmuxamedov - f.-m.f.n.

Muassis: Samarqand davlat universiteti Manzil: 140104,
Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 240-38-47, Faks: (0 366) 239-13-87 e-mail:
axborotnoma.uz
SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi. Bosishga 30.05.2026-yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00
Buyurtma raqami 845 Adadi 30 nusxa.

ISSN 2181-1296